



**Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi**

Prezidenti sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining Respublika bosqichi tadbiri

PRESS-RELIZ

2025-yil 8-avgust kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Prezidenti sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining Respublika bosqichi yopilish hamda sovrindorlarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda ta’kidlanganidek, tanlovda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridan **jami 14 ta** maktab jamoasi (*umumiy 70 nafar o‘quvchi*) ishtirok etdi. Bunda tanlov tarixida ilk bor **13 ta jamoa ingliz tili va 1 ta jamoa fransuz tili** bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

Tanlov milliy **“Multilevel”** testi vositasida ishtirokchilarning **tinglab tushunish** (listening), **yozish** (writing), **gapirish** (speaking) va **o‘qish** (reading) ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish orqali tashkil etildi.

Ma’lumot uchun: *3 bosqichda tashkil etilgan tanlovda respublika bo‘yicha jami 7 952 ta maktab (jami 39 760 nafar o‘quvchi) qamrab olingan bo‘lib, o‘quvchilarning 38 255 nafari ingliz, 875 nafari nemis, 630 nafari fransuz tilidan ishtirok etishdi.*

Tanlovning birinchi bosqichi yakuniga ko‘ra, respublika bo‘yicha **208 ta** tuman va shahar maktablari (*1 040 nafar o‘quvchi*) hududiy bosqichga, ikkinchi bosqich yakunlariga ko‘ra, **14 ta maktab (70 nafar o‘quvchi)** final bosqichiga tavsiya etildi.

Test topshiriqlari ishtirokchilarning muloqot ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, tanlovning viloyat bosqichi sinov materiallarida ishtirokchilarning eshitish va yozish kompetensiyalarini baholashga urg‘u berildi. Bunda ishtirokchilarning leksik-grammatik bilimlari bilan birga retseptiv va produktiv nutqiy ko‘nikmalari ham tekshirildi.

Tanlovning respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan jamoalar:

1-o‘rin uchun – 500 mln so‘m;

2-o‘rin uchun – 400 mln so‘m;

3-o‘rin uchun – 300 mln so‘m miqdorida pul mukofotini qo‘lga kiritadi.

Shuningdek, respublika bosqichi ishtirokchilari va ularning ustozlari xorijiy davlatga ta’lim sayohati yo‘llanmasini qo‘lga kiritishadi.

***Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi Axborot xizmati***